

XORAZMSHOX ANUSHTAGINIYLAR SULOLASI VAKILLARI FAOLIYATIGA OID MA`LUMOTLAR MANBA VA TADQIQOTLARDA

Kamolov Jahongir Mamasidiqovich

TDPU. Tarix fakulteti dotsenti v.b, PhD

Raxmatullayeva Sarvinoz

TDPU. Tarix fakulteti I bosqich talabasi

Annotasiya. *Ushbu maqolada davlatchiligimiz tarixida muhim o`rin tutgan Xorazmshox Anushtaginiylar sulolasi manbalar yordamida tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy tarixchilarning asarlarida sulolaning kelib chiqishi, davlatga asos solishi, yuksalish davri va inqirozga yuz tutishi kabi holatlar taqqoslanib, o`xshash jihatlar va farqli holatlar ochib berishga harakat qilingan.*

Kalit so`zlar. *Taxt, qa`la, noib, tashtdor, shixna, urug`, bekdili, Anushtagin, Xorazmshox, unvon, Qutbiddin Muhammad, Otsiz, El Arslon, Takish, Alovuddin Muhammad, qoraxitoy, saljuqiy, Malikshox, Sulton Sanjar, xalifa, qipchoq, o`g`uz.*

Davlatchiligimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz tariximizda muhim o`rin tutgan buyuk davlatlarning tarixi, ularning vujudga kelishi, sulolaviy kelib chiqishi jarayonlari har doim dolzarb bo`lib kelgan. Manbalar bu tarixni turlicha davrlarda turlicha talqin qilib, voqeliklarga davr nuqtai nazaridan yondoshib kelgan. Shunday ekan bugungi kunda bu sulola tarixini manbalardan kelib chiqib zamonaviy metodlar asosida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sulolaning tarix sahnasida paydo bo`lishi Saljuqiylar davlatida hukmronlik qilgan Malikshox davriga tog`ri keladi. Sulola asoschisi Anushtagin o`g`uzlarning bekdili urug`iga mansub bo`lib, Malikshox davrida uning tashtdori (sulton hammomlarining boshlig`i) edi⁸.

O`sha davrlarda bu lavozim eng ishonchli va sadoqatli shaxslargagina nasib qilganligini inobatga olsak Anushtagin sulton Malikshoxga eng yaqin mulozimlardan biri bo`lganligini bilish qiyin emas. Xorazmda Anushtaginiylargacha to`rtta sulola hukmronlik qilgan bo`lib, Siyovushiylar, Afrig`iylar, Ma`muniylar, Oltintoshiylar shunday sulolalardan edi.

Ushbu sulolalardan so`ng Xorazm Saljuqiylar qo`liga o`tdi. Ular 1043 yilda Xorazmni zabt etib bu yerga o`zlariga yaqin bo`lgan Anushtaginni noib etib tayinladilar. Shu tariqa Xorazmda Anushtaginiylar sulolasi tarixi boshlandi. Ushbu sulolaning ko`zga ko`ringan sultonlari Qutbiddin Muhammad (1097-1127), Jaloliddin Otsiz (1127-1156), Elarslon (1156-1172), Sultonshox Mahmud (1172-), Alovuddin Takesh (1172-1200), Muhammad Xorazmshox (1200-1220) va so`nggi hukmdor Jaloliddin Manguberdi (1220-1231) edilar.

⁸ Rashiduddin Fazlulloh. Jome at-Tavorix. I tom. B-311.

O`sha davr tarixchilaridan Ibn al Asirning “Kitob al komil fit tarix” asari muhim manba bo`lib, uning asaridagi ma`lumotlardan Nasaviy va Juzjoniylar ham foydalangan. Xususan, Ibn al Asirda X asrda Xorazmdagi siyosiy voqealar keltirilib, bu voqealar to`songi Xorazmshox Jaloliddin Manguberdi vafotigacha davom etgan. Sulton Malikshoxning o`g`li Barquyoq davrida Xorazmga noib etib, Anushtaginning o`g`li Qutbiddin Muhammad tayinlandi. Bu haqida Ibn al Asir quyidagicha ma`lumot keltiradi: “Anushtagin sultonning Bilgabek ismli amiri tomonidan Garjistonlik qulfurushdan sotib olinib, sulton saroyiga berilgan edi. U tez fursatda sultonning ishonchli kishisiga aylanib, uning dastlab tashtdori lavozimiga keyinchalik Xorazm shixnasi lavozimiga tayinlandi. Uning bir Muhammad ismli o`g`li bo`lib, u yaxshi ta`lim olgan va otasi vafotidan so`ng o`rniga Xorazm noibi lavozimiga tayinlangan edi”⁹. Anushtagin Xorazm noibi lavozimini egallagan bo`lsada Xorazmshox unvonini tiklay olmadi, amalda Saljuqiylarning sodiq noibi vazifasida qoldi. Xorazmshox unvonining tiklanishi va sulolaning yorqin tarixi Anushtaginning o`g`li Qutbiddin Muhammaddan boshlandi. Shu joyda aytib o`tish kerakki, Qutbiddin Muhammadga Xorazm noibi va Xorazmshox unvoni Saljuqiylarni Xurosondagi amiri Amir Dod Xabashiy tomonidan berilgan bo`lib, bu unvon garchi yuksak Sharaf hisoblansada, biroq Anushtaginiylar Saljuqiylarning sodiq noibiligicha qolgan edi.

Tarixiy manbalardan Alovuddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi Jahonkushoy” asarida Qutbiddin Muhammad haqida ancha qiziq ma`lumotlar keltirilgan. “Tarix kitoblarining ochiq oydin anglatishiga ko`ra Qutbiddin Saljuqiy sultonlar davrida muhim vazifalarda bo`ldi, 30 yil Xorazmni istaganidek boshqardi va o`limiga qadar davom ettirgan Xorazm voliyligi davrida Sanjarning saroyiga navbat bilan bir yil o`zi bir yil o`g`li Otsizni yuborib turdi”¹⁰.

Yuqoridagi voqealar sharhidan shuni bilish mumkinki Qutbiddin Muhammad davrida Xorazm mustaqil boshqarilgan va uning mavqeyi ancha ortgan bo`lsada, u ham sulton Sanjarning sodiq amiri va noibi vazifasida davlatni boshqargan.

Xorazmning yuksalishi va mustaqilligiga tamal toshini qo`yilishi shubhasiz Jaloliddin Otsiz nomi bilan bog`liq. U yuksak bilimli, mohir sarkarda bo`lib mardlik va jasoratda tengi yo`q hukmdor edi. Otsiz dastavval Sanjarga sodiq xizmat qilgan bo`lsada biroq vaziyat taqozosiga ko`ra Xorazmni mustaqil idora qilishga harakat qilgan. Ikki o`rtada munosabatlar goh buzilib, goh yarashuv bilan to Otsizning o`limigacha davom etdi.

Sulton Sanjar garchi Otsiz tomonidan ko`p marta isyonlarga duch kelgan bo`lsada, biroq har safar uni kechirib, Xorazm noibligida qoldirgan. Shu joyda tarixchi Atomalik Juvayniyning bergan ma`lumotlariga nazar tashlaymiz. “Bu odamning bizga qilgan xizmatlari borki, biz uning oldida ancha-muncha burchlimiz. Unga ziyon zahmat

⁹ Ibn al Asir. Al komil fit tarix. Sh.Kamolliddin, Bulgakova tarjimasini va sharhi. Toshkent - Цюрих 2005. B-234.

¹⁰ Alovuddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahonkushoy. (Jahon fotihi tarix). T: Mumtoz so`z. 2015. B-276.

yetkazish bizning himmatli va muruvvatli bo'lish istagimizga to'g'ri kelmaydi"¹¹. Bundan ko'rinadiki Otsizning Sulton Sanjarga qilgan xizmatlari yuksak etirof etilgan bo'lib, uning gunohlari avf etilishiga imkon bergan.

Otsiz 1156 yil vafot etadi. Ammo uning davrida Xorazmning hududlari ancha kengayib, Kaspiy dengiz sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimigacha bo'lgan yerlarni Xorazmga bo'ysundirildi. U sharqdan kirib kelgan qoraxitoylarga qarshi bir necha bor kursh olib bordi, ularni Xorazmga kirishiga to'sqinlik qildi. Uning vafotidan so'ng Xorazm taxtini o'g'li Elarslon egalladi.

U hokimiyatga kelgan davrda mamlakat ancha notinch bo'lib, uning sharqiy sarhadlariga qoraxitoylar, janubiy chegaralarga xususan Xorazmga Muhammad G'iyosiddin G'uriy xavf solayotgan edi. Bundan ham kattaroq muammolar mamlakat ichida sodir bo'layotgan bo'lib, ko'chmanchi turkey qabilalar Jand va Mang'ishloqni bosib olgan edi. Elarslon o'zining sodiq amirlariga tayanib, bu isyonlarni bostirdi. Ukase Sulaymonshox va amakisi Yusufni qatl ettirdi.

U saljuqiy amirlardan toboro kuchayib, Tus, Obivard, Shahrison, Bistom va Domg'on viloyatlarini egallab olgan Oy Aboga qarshi qo'shin tortdi. Bu xususida tarixchi Juvayniy quydagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi. "Elarslon Nishopurga Oy Aboni tanobini tortib qo'yish uchun katta qo'shin bilan yurish boshladi. Qamal uzoq davom etib, ikki tomon ham holdan toydi. Hech ish chiqmagach El Arslon sulhga rozi bo'lib, Xorazmga qaytdi"¹².

El Arslonning hukmronligidan so'ng taxt vorisi etib Sultonshox tayinlandi. Mamlakatda tax tuchun kurash boshlandi. Bu voqealar Ibn al Asir, Juvayniy, Rashiddidin va Ibn Xaldunlarning asarlarida bayon etilgan. Xususan Ibn Xaldun bu haqida quyidagicha ma'lumot yozib qoldirgan. "El Arslon vafoti arafasida uning katta o'g'li Takish (hozirgi Xo'jand yaqinidagi) Jand viloyatida Xorazmshox voliysi bo'lib turgan edi. El Arslon shu tufayli o'limi oldidan Kenja o'g'li Sultonshoxni valiahd etib tayinladi. Ammo davlat va harbiy ishlarga uning onasi Turkon xotun bosh qosh edi"¹³. Yuqoridagi voqealarni oxiri aka uka o'rtasida kurash Sultonshox vafotigacha davom etib, 1172-yilda taxt to'liq Aloiddin Takish qo'lga o'tdi.

Takish davrida asosiy e'tibor Xorazm hududlarini yanada kengaytirish va qoraxitoylar bosqinini oldini olishga qaratildi. Takish shuningdek Bag'dod xalifasiga qarshi urush qilib, 1196 yilda Ray, Isfahon va Hamadonni Xorazmshoxlar davlatiga qo'shib oldi.

Takish haqidagi ma'lumotlar tarixchilar Juvayniy va Rashididdinda va bir muncha keng berilgan. Shuningdek o'sha davr tarixchilaridan Juzjoniya ham bu voqealar qisman keltirib o'tilgan. Takesh so'nggi saljuqiylardan Turg'ul III ga qarshi yurish qilib, Iroqi Ajamni bosib olgani haqidagi voqealar haqida shunday bayon qilinadi. "Bir

¹¹ O'sha joyda....

¹² Ibn al Asir. Al komil fit tarix. Sh.Kamolliddin, Bulgakova tarjimasi va sharhi. Tashkent - Djorix 2005. B-262.

¹³ Z.Bunyadov. Anushtagin Xorazmshoxlar davlati. T: G'ofur G'ulom nashriyoti. 1998. B-52.

qancha mualliflarning yozishicha, Tug'ril va Qutlug' Inanaj yuzma yuz olishgan, Tug'ril o'z otida raqibiga tashlangan, biroq raqib bergan zarbadan ot bilan birga yiqilgan va Tug'ril Inanaj tomonidan o'ldirilgan. Ammo men Yafaiyning bergan ma'lumotlarini ma'qul ko'raman, u Tug'ril o'z qo'shinlarini beshinchi marta boshlab ketayotib, oti qoqilib, Tug'rilni yerga uloqtirilganini aytadi. Shunda Qutlug' Inanaj voqea joyiga yetib keldi va uni tanib olishdan oldin Tug'rilga qattiq zarba berib, uni o'ldirmoqchi bo'ldi. U buni uddaladi va jasadni tuyaga ortib, Takishning huzuriga olib boradilar, Takish dushmanini bu ahvolda ko'rib, tiz cho'kib, unga ko'rsatilgan marhamati uchun Qodir Tangriga shukronalar aytdi"¹⁴

Takish davrida Xorazm har tomonlama yuksaldi, uning shuhrati ortib, hududlari ancha kengaydi. Takishning qoraxitoylarga qarshi yurishi har doim ham muvaffaqiyat bilan yakunlanmagan. Uning qo'shinlari hatto Qoraxitoylarning poytaxti Bolasog'un atroflarigacha kirib borgan. Takishning xalifa bilan ziddiyati xalifa Nosirdan yorliq talab qilishi va Xorazmshoxlarning shuhratini Saljuqiylar kabi tan olishini talab qilishi ikki o'rtada urush kelib chiqishiga olib keldi.

O'z mamlakati hududlarini ikki karra kengaytirgan va qudratli davlat barpo etgan xorazmshoh Takishni Xorazmning eng iste'dodli hukmdori deb e'tirof etish mumkin.

Sulton Takishni o'limi va Aloiddin Muhammadning taxtga kelishi voqealari Alouddin Atomalik Juvayniyning "Tarixi Jahongusho" asarida quyidagicha keltiriladi. "Malik Qutbiddin¹⁵ poytaxtga kelgach, amirlar yig'ilib, vaqtichog'lik majlisini tashkil qildilar va uni xijriy 596 yil shavval oyining 20 kuni(1200 yil 4 avgust)da Allohning inoyati bilan taxtga chiqardilar."¹⁶

Uning siyosati kamchiliklaridan biri qipchoq harbiy aristokratiyasiga ko'rsatilgan homiylik bo'lgan. Qipchoqlar Takish rafiqasi xayrihohligidan foydalanib davlat ishlariga ko'proq ta'sir ko'rsatishga intilgan. Turkiy "qo'mondonlar"ning davlat ishlariga o'zboshimcha aralashuvi keyinchalik Takish o'g'li Muhammad zamonida Xorazm davlatining parchalanishiga sabab bo'lgan. Alovuddin Muhammad (1200-1220) davrida mamlakat hududi yanada kengadi.

Anushteginiylar sulolasi davrida Xorazm har tomonlama yuksaldi, buyuk bir davlat barpo bo'ldi. Bu davrda o'z zamonasining yuksak ilmi allomalari va din ulamolari yetishib chiqdi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak Xorazm davlatchiligi tarixida Anushteginiylar sulolasi eng yuksak davrni boshdan kechirdi va Sharqning buyuk davlatiga aylandi.

¹⁴ Juzjaniy. The Tabakat-i- Nasiri. London. Printed by Gelbert & Rivington. 1873. P-167.

¹⁵ Sulton Muhammad Xorazmshoxning taxtga o'tirishidan avvalgi nomi Qutbiddin edi. Taxtga o'tirgandan keyin otasi Takashning laqabi bo'lgan Aloiddin nomini oldi.

¹⁶ Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. T: Mumtoz so'z. 2015. B-305.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Rashiduddin Fazlulloh. Jome at-Tavorix. I tom. B-311.
2. Ibn al Asir. Al komil fit tarix. Sh.Kamolliddin, Bulgakova tarjimasi va sharhi. Ташкент – Цюрих 2005. B-234.
3. Alovuddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahonkushoy. (Jahon fotihi tarix). T: Mumtoz so`z. 2015. B-276.
4. Ibn al Asir. Al komil fit tarix. Sh.Kamolliddin, Bulgakova tarjimasi va sharhi. Ташкент - Цюрих 2005. B-262.
5. 2005. B-262.
6. Z.Bunyadov. Anushtagin Xorazmshoxlar davlati. T: G`ofur G`ulom nashriyoti. 1998. B-52.
7. Juzjaniy. The Tabakat-i- Nasiri. London. Printed by Gelbert & Rivington. 1873. P-167.
8. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. T: Mumtoz so`z. 2015. B-305.